

PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASHDA IJODIY O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION METODLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonida ijodiy o'z-o'zini rivojlantirishning innovatsion metodlari tahlil qilingan. Ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish hamda o'z ustida ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ijodiy o'z-o'zini rivojlantirishning nazariy asoslari hamda amaliy mexanizmlari o'rganilib, bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion metodlardan foydalanish o'qituvchilarni nafaqat kasbiy, balki shaxsiy-ijodiy rivojlanishida ham muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, pedagogik kadrlar tayyorlash, ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish, innovatsion metodlar, ta'lim jarayoni, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, mustaqil fikrlash, kasbiy rivojlanish.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ТВОРЧЕСКОГО САМОРАЗВИТИЯ В ПОДГОТОВКЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ

Аннотация. В данной статье проанализированы инновационные методы творческого саморазвития в процессе подготовки педагогических кадров. В образовательном процессе освещается значение современных педагогических технологий и методов в развитии творческого потенциала будущих педагогов, формировании самостоятельного мышления и компетентности в работе над собой. Также будут изучены теоретические основы и практические механизмы творческого саморазвития, показаны возможности повышения эффективности обучения за счет применения инновационных подходов в профессиональной деятельности будущих педагогов. Результаты исследования показывают, что использование инновационных методов является важным фактором не только профессионального, но и личностно-творческого развития педагогов.

Ключевые слова: будущий учитель, подготовка педагогических кадров, творческое саморазвитие, инновационные методы, образовательный процесс, современные педагогические технологии, самостоятельное мышление, профессиональное развитие.

INNOVATIVE METHODS OF CREATIVE SELF-DEVELOPMENT IN THE TRAINING OF PEDAGOGICAL PERSONNEL

Annotation. This article analyzes innovative methods of creative self-development in the process of training pedagogical personnel. In the educational process, the importance of modern pedagogical technologies and methods is highlighted in the development of the creative potential of future teachers, the formation of independent thinking and the development of competencies for working on themselves. The theoretical foundations and practical mechanisms of creative self-development are also studied, showing the possibilities of improving educational efficiency by applying innovative approaches to the professional activities of future educators. The results of the study show that the use of innovative methods is an important factor in the development of teachers not only professionally, but also personally-creatively.

Keywords: *future teacher, training of pedagogical personnel, creative self-development, innovative methods, educational process, modern pedagogical technologies, independent thinking, professional development.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – bu bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini, ayniqsa ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Chunki zamonaviy ta'lim nafaqat bilim berishni, balki mustaqil fikrlovchi, innovatsion yondasha oladigan, shaxsiy va kasbiy o'sishga intiladigan mutaxassislarni tarbiyalashni talab etmoqda. Shu boisdan, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonida ijodiy o'z-o'zini rivojlantirishning innovatsion metodlarini qo'llash dolzarb masala sifatida maydonga chiqmoqda.

Jamiyatda sodir bo'layotgan bugungi yangiliklar hamda iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimiga xususan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga boshqacha yondashishni talab qiladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy amalga oshirish vazifalaridan biri ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik sifati va ixtisosiga zaruriy talablarni, ularning madaniy va ma'naviy-ruxiy darajalarini aniqlab beruvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish va tatbiq etishdir.

Ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish jarayoni o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatiga mas'uliyatli yondashuvi, pedagogik yangiliklarni o'zlashtira olishi hamda zamonaviy metodlardan unumli foydalanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, ta'limning raqamlashtirilishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi pedagoglardan yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda.

Dunyoda turli xil kasblar juda ko'p, o'qituvchilik dunyodagi kasblardan farq qilib, pedagoglik kasbi kishilik tarixining butun davomida har bir ijtimoiy formatsiyani qaror toptirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan eng muhim doimiy shart-sharoitlardan biridir. Buning sababi shundaki, tarbiya muayyan va eng muhim ijtimoiy ehtiyoj tariqasida juda qadimgi zamonlardayoq vujudga kelgan bo'lib, u yosh avlodni tayyorlashni va pedagogik g'oyalar hamda mussasalarni kishilarning g'oyat zarur talabi qilib qo'ygan. O'qituvchilik kasbi to'xtovsiz o'sib bormoqda, takomillashmokda va yangi mazmun bilan boyimoqda.

Ta'lim tizimi mazmuni – yoshlarni oliy ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma'lumot mazmunidan tanlanib, ta'lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko'nikmamalaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va boshqa ko'plab kasblar kabi o'qituvchilik kasbi tayyorgarligi dastlabki pedagogik ta'lim olingandagina tugamaydi. O'qituvchilarga doimiy yangilanib turuvchi talablar qo'yiladi. Professional o'qituvchi bu yangilanishlarga tabiiy ravishda o'z kasbiy darajasini doimiy oshirib borish bilan erishishi lozim. O'qituvchilarni tayyorlash uzluksiz jarayon sifatida ishga kirgunicha, ishga kirayotgan vaqti va ishlayotgan davri bosqichlarini o'z ichiga olishi kerak.

“Pedagoglik kasbi eng murakkab, eng qiyin, eng mas'uliyatli va eng faxrli kasblardan biridir. U boshqa hamma kasblarning poydevoridir. Bu hol maktab har bir xalqning ma'naviy ruhiy madaniyatining poydevori ekanligidan kelib chiqadi. Odamning mehnat faoliyati bir qancha xilma-xil turga ega bo'lib, ulardan har biri muayyan o'rinda turadi har biri o'ziga xos vazifa bajaradi”[1].

Ta'lim tizimida o'z-o'zini rivojlantirish masalalari bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar va bir qator uslubiy ishlarda o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirishning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. O'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirishning komil inson tarbiyasidagi ahamiyati, ilm-fan rivojlanishidagi o'rni bo'yicha Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Maxmud Qoshg'ariy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarimiz asarlarida keltirib o'tilgan. Kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishda o'z-o'zini rivojlantirishning muhimligi A.Muslimov, Sh.Abdullaeva, D.N.Arzikulov, R.X.Djuraev, U.K.Tolipov va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi. Shaxs innovatsion kompetentligining ko'rsatkichlari bo'lib insonning

hodisalarga ta'sir etishi, hodisalarni boshqarish, ulardan o'z-o'zini rivojlantirishi uchun foydalanish qobiliyatlari xizmat qilishi mumkin.

O'z mavqeini o'zi belgilash, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini mukammal kasbiy cho'qqiga etkazish va mustaqil bilim olish, asosiy maqsadi o'qituvchining shaxs sifatida va kasbiy o'sishini ta'minlash bo'lgan jarayonlardir. "Kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik-psixologik nazariy va amaliy bilimlar integratsiyasi, fanlararo integratsiya, kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi asosida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishga tizimli yondashuvni talab qiladi"[2].

Ya'ni, innovatsion usullardan foydalanish yoki foydalanmaslik o'qituvchi shaxsiga, uning metodik malakasiga, pedagogik mahoratiga bog'liq. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimining vazifasi ana shunday ehtiyojni dolzarblashtirish, uslubiy kompetentsiyani shakllantirishdan iborat. O'qituvchining muhim vazifasi - uning pedagogik salohiyatini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish va rivojlantirish; shunda o'qituvchi misoli ta'sirida o'quvchi faol va malakali shaxs bo'ladi.

Pedagogik kadrlar tayyorlashda qo'llanilayotgan innovatsion metodlar o'quvchi-talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, ularni ijodiy qarorlar qabul qilishga o'rgatadi va yangilik yaratish qobiliyatini shakllantiradi. Bunday metodlarning eng samaralilari quyidagilardan iborat:

1. Interfaol metodlar – klaster, aqliy hujum, keys-stadi, debat, rol o'ynash kabi usullar bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy faolligini oshiradi, ularni faol muloqotga jalb etadi.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari – elektron darsliklar, multimedia vositalari, virtual ta'lim muhiti, onlayn treninglar talabalarning mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

3. Muammoli ta'lim – bo'lajak pedagoglar oldiga ilmiy va amaliy muammolarni qo'yish orqali ularni izlanishga undash va innovatsion yechim topishga yo'naltirish.

4. Loyiha asosida o'qitish – talabalarni jamoaviy va individual loyiha ishlari orqali ijodiy faoliyatga jalb etish, ularni ilmiy-tadqiqot ishlariga qiziqitirish.

5. Refleksiv metodlar – talabaning o'zini baholashi, o'z faoliyatini tahlil qilishi, shaxsiy rivojlanish rejasini ishlab chiqishi.

Mazkur metodlar nafaqat ta'lim jarayonida samaradorlikni ta'minlaydi, balki bo'lajak o'qituvchilarni mustaqil va ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu nuqtai-nazardan o'quv faoliyatining asosiy maqsadlaridan biri kasbiy tiklanish va o'z hayot faoliyati sub'yekti sifatidagi talabaning o'z-o'zini rivojlantirishi bo'lib, u talabada o'quv hamda faoliyatning boshqa turlari o'z-o'zini tashkil etuvchi sub'yekti sifatlarini: tanlovga, faollikka, mustaqillikka, onglik, salohiyatni ko'zda tutadi. O'z faoliyatining maqsadlari va vazifalarini anglash hamda qabul qilishda namoyon bo'luvchi sub'yektivlik ko'rinishi, qiyinchiliklarni bartaraf etishda faollikning namoyon bo'lishi kengayib borayotgan aqliy va kasbiy imkoniyatlar va hokazolardan qoniqishni his qilishni talaba shaxsi o'z-o'zini rivojlantirish ko'rsatkichi sifatida qarash mumkin.

O'zini o'zi samarali baholash omillari:

1. O'zini tushunish (o'zi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish). 2. Shaxs sifatida o'z qadriyatini anglash (o'zi to'g'risidagi ijobiy ma'lumotlarni to'plash). 3. O'zini-o'zi nazorat qilish (o'zi to'g'risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelishi).

Xulosa. Pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy o'z-o'zini rivojlantirishini ta'minlash bugungi ta'lim taraqqiyotining muhim talablaridan biridir. Innovatsion metodlardan foydalanish nafaqat o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va o'z ustida ishlash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijodiy o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, bo'lajak pedagoglarni yangilikka ochiq, ijodkor va zamonaviy ta'lim talablari asosida faoliyat yurita oladigan mutaxassis sifatida shakllantiradi. Shu bois, pedagogik kadrlar tayyorlashda innovatsion metodlarni keng joriy etish,

- 214 ta'lim jarayonini ilg'or tajribalar asosida tashkil etish hamda o'qituvchilarni doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.
2. Химматалиев, Д. О. (2020). Бўлажак ўқитувчиларда касбий компетентликни ривожлантириш механизми. *Современное образование (Ўзбекистан)*, (7 (92)), 16-26.
3. Aripov, Z., & Oripova, O. (2023). ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALAR E'TIBOR MARKAZIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 135-138.
4. O.Suvonov, S.Astanova. Pedagogik mahorat. -Guliston, 2010.
5. A.Kosimov, F.Xoliqova. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. -Toshkent, 2004.
6. Арипов, З., & Сайдумарова, М. (2021). Воспитание и развитие одаренных учащихся современными методами обучения. *Общество и инновации*, 2(12/S), 86-92.